



TERMIZ IQTISODIYOT VA
SERVIS UNIVERSITETI

TISU ILMIY TADQIQOTLARI XABARNOMASI

ILMIY-USLUBIY JURNAL
ISSN 2992-9016

№1/2026

Muassis:
TERMIZ IQTISODIYOT VA
SERVIS UNIVERSITETI

TISU ilmiy tadqiqotlari xabarnomasi
Ilmiy-uslubiy jurnal

Bosh muharrir:

Sattarov Abdusamat
Umurqulovich

Bosh muharrir o'rinbosari:

Qobulov Eshbolta Atamuratovich

Mas'ul kotib:

Turayev Baxtiyor Ergashevich

Dizayner:

Meyliqulov Shahboz
Xolmamatovich

Jurnal bir yilda to'rt marotaba
nashr etiladi

Jurnal O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligining 2023-yil 1-martdagi № 066379-raqamli guvohnomasi bilan ro'yxatga olingan va O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2025-yil 8-maydagi 370/5-sonli qarori bilan ro'yxatdan o'tkazilgan hamda iqtisodiyot fanlari bo'yicha dissertatsiyalarning asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

Jurnal "Termiz Publishing center" MCHJ bosmaxonasida chop etildi.

Bosishga ruxsat etildi:

31.03. 2026.

Qog'oz bichimi: 60x84 1/8

"Times New Roman" garnituruasi.

Ofset bosma.

Ofset bosma usulida bosildi.

Shartli bosma tabog'i: 11.

Adadi 100 nusxa.

Bahosi kelishilgan narxda.

Buyurtma № 4.

Jurnalning elektron shakli bilan

<https://scientific.tues.uz>

web saytida tanishish mumkin.

Tahririyat manzili:

Termiz sh., "Yulduz" MFY,
"Ibn Sino" ko'chasi, 38B-uy.

TAHRIR HAY'ATI A'ZOLARI:

Ixtisham Ul-Haq – i.f.d., prof. (Pokiston)
L. Narrada Gamage – i.f.d., prof. (Shri Lanka)
Xudoyqulov S.K. – i.f.d., prof.
Pardayev J.M. – i.f.f.d., (PhD). dots.
Toshqulov A.H. – i.f.d, prof.
Absamatov A.E. – i.f.d., dots.
Ruzmetov B. – i.f.d. prof.
Abdullayev I.S. – i.f.d., prof.
Ro'ziyev O.A. – i.f.n., dots.
Otamurodov Sh.N. – i.f.d., dots.
Shodiyev A.A. – i.f.d., dots.
Bakirov P.U. – f.f.d., prof.
Qodirov U.D. – p.f.d., prof.
Turopova S.K. – f.f.d., dots.
Mamadjanova T.A. – i.f.f.d. (PhD), dots.
Jurayev X.A. – i.f.f.d. (PhD), dots
Yarmatov Sh.CH. – i.f.f.d (PhD).
Amonov M.O. – i.f.f.d. (PhD).
Absamatov As.E. – i.f.f.d (PhD)
Rahmatullayev B.Ch. – i.f.f.d. (PhD).
Xoliyorov E.Ch. – f-m.f.n., dots.
Esanov A.A. – f.f.f.d. (PhD), dots.
Xudoyberdiyev U.T. – t.f.f.d. (PhD)
Namozov G'.Sh. – i.f.f.d. (PhD), dots v.b.
Xayrullayev I.N. – f-m.f.n., dots.
Bozorov S.B. – f.f.f.d. (PhD)
Sattarova Y.A. – f.f.f.d. (PhD), dots.
Eshkurbanov S.B. – t.f.f.d. (PhD), dots.
Saloxitdinova N.M. – p.f.f.d. (PhD), dots.
Madiyeva M.Y. – f.f.f.d. (PhD), dots.
Xakimov Z.I. – i.f.f.d. (PhD), dots.
Yormatov F. J. – t.f.n., dots.
Xoshimxo'jayeva M. –f.f.f.d. (PhD), dots.
Ismoilov B.T. – p.f.f.d. (PhD), dots.
Salomov G'. Y. – p.f.f.d. (PhD), dots.
Uralova O. P. – f.f.d (DSc), dots.
Xolov O.Ch. – p.f.f.d. (PhD), dots.
Usmonov M. Q. – p.f.f.d. (PhD), dots.
Abdusamatov A.S. - p.f.f.d. (PhD). dots.
Norkulova Sh. T. – f.f.f.d. (PhD)
Shoturayev J. – p.f.f.d. (PhD).
Abduraxmanov A.Y. – t.f.f.d. (PhD).

MUNDARIJA

N.A. ABDURAIMOVA, M.N. KARIMOVA

Tadbirkorlik subyektlarida moliyalashtirishni takomillashtirish asosida aholi bandligini ta'minlashning iqtisodiy tahlili.....5

N.A. ABDURAIMOVA, M.T. RO'ZIYEVA

Xo'jalik yurituvchi subyektlarning investitsiya loyihalarini moliyalashtirishning amaldagi holati tahlili.....10

G.A. AXMETOVA

O'zbekiston iqtisodiyotida investitsiyalarning iqtisodiy samaradorligini baholash omillari.....16

S.R. BOYPO'LATOV

Sanoat korxonalarida mehnat unumdorligini oshirishda innovatsion va raqamli texnologiyalarning roli.....21

M.SH. CHORIYEVA

Eksport salohiyatidan samarali foydalanish orqali iqtisodiyotni barqaror rivojlantirish omillari.....26

N.X. DO'SMUXAMEDOVA

Nodavlat notijorat tashkilotlarida xarajatlar hisobini samarali yuritish omillari.....32

B.A. ERDANAYEV

Hududiy rivojlanishda drayver tarmoqlarning o'рни va ularni shakllantirishning nazariy-amaliy asoslari37

N.N. ESHQULOVA, SH.B. ABDUNABIYEV

Mamlakatimizda xizmat ko'rsatish sohasi va xizmatlar eksporti dinamikasi tahlili.....42

M.X. KURBOSHEVA

Tijorat banklari tomonidan tadbirkorlik subyektlarini kreditlashning nazariy-metodologik asoslari.....47

O.J. MURODOV, H.I. G'ULOMOV

Paxta tozalash korxonalarida moliyalashtirish-innovatsiya uzilishi: O'zbekiston agroklastarlari misolida empirik tahlil.....52

SH.S. MUZRAPOVA, N.S. MUZRAPOVA

Ekonometrika ta'limida interaktiv va amaliy matematika asosidagi yondashuvlarning samaradorligini baholash.....59

Z.M. NORALIYEVA

Qishloq joylarni rivojlantirish va aholi turmush sifatini yaxshilashda kichik biznes samaradorligini oshirish yo'llari.....66

A.P. PARDAYEV

O'zbekiston bank tizimini strategik transformatsiya jarayonining tahlili.....74

J.R. SAYFIYEV

Agile transformatsiya jarayonidagi kutilayotgan qiyinchiliklar va ularni bartaraf etish yo'llari.....77

A.A. SHODIYEV, B.A. SHODIYEV

Qurilish tashkilotlarida buxgalteriya hisobining o'ziga xos xususiyatlari.....82

B.E. TURAYEV

Iqtisodiy o'sish omillarini kobb-duglas modeli asosida ekonometrik baholash.....89

Z.I. XAKIMOV

Qishloq xo'jaligida innovatsion faoliyatni moliyalash yo'nalishlari.....93

N.A. XAKIMOVA

Fermer xo'jaliklarini moliyaviy qo'llab - quvvatlashda subsidiya amaliyotini takomillashtirish.....98

SH.D. XAYDAROVA

Maishiy xizmatlar sohasida tadbirkorlikni rivojlantirishning mintaqaviy xususiyatlari.....103

L.L. XAYRULLAYEVA

Iqtisodiy o'sishni ta'minlashda yashil iqtisodiyot yondashuvi va an'anaviy iqtisodiy model.....107

Y.Z. XUDAYAROVA

Asalarichilik samaradorligiga ta'sir etuvchi omillarni lasso regression modeli asosida tahlil qilish.....112

R.A. XURRAMOV

Hududlar kesimida eksport mahsulotlarining daromadlilik darajasini prody indeksi asosida statistik tahlil qilish.....116

G.A. YUSUPOV

Uzoq muddatli aktivlarda adaptiv amortizatsiya usuli.....122

MUNDARIJA

SH.E.BOBOMURATOVA

O'zbekiston va uning chegara mamlakat hududlarida til siyosati.....126

D.MUQUMOVA

Ja'far Muhammad Termiziyning "Mendagi Boysun" she'ri: lingvistik tahlil.....134

D.B.IBODULLAYEVA

O'zbek va ingliz tillaridagi teatr atamalarining chog'ishtirma tahlili.....137

Z.M.AMIRKULOVA

"Panoh" hikoyasida tarixiy voqe'lik va badiiy talqin uyg'unlashuvi.....140

M.A.MEYLIQULOVA

O'quvchilarda adabiy nutqiy kompetensiyani rivojlantirish masalalari.....144

SH.A.DONAYEVA

Boshlang'ich sinf o'quvchilarini o'qitishda 4K modelining ahamiyati.....147

G.E.TURAYEVA

Texnologiyalashgan jamiyatda bo'lajak o'qituvchilarning axloqiy tarbiyasini shakllantirish150

M.X.XAYDAROVA

Magistratura talabalarining mustaqil ta'lim faoliyatini tashkil etish.....153

F.A.XAYITOVA

O'quvchilarda kreativ o'qish madaniyatini shakllantirishning milliy va jahon tajribasi.....157

D.R.YUNUSOV, J.I.UMIROV

Fanni o'qitishda interfaol ta'lim metodlaridan foydalanish.....160

F.E.JOMONQULOVA, S.B.UZAKOVA

Yoshlarni axborot xurujlaridan asrash, ularda axborot imunitetini shakllantirishda zamonaviy usullardan foydalanishning o'рни.....164

U.A.TASHBAYEVA

Boshlang'ich sinflarda bolalar adabiyotini o'rgatishda mustaqil ta'lim topshiriqlaridan foydalanish metodikasi.....169

SH.T.TOSHOVA

Talabalarda sog'lom turmush tarzi ko'nikmalarini takomillashtirishning didaktik imkoniyatlari.....173

R.I.ESONOVA, N.M.SALOXITDINOVA

Boshlang'ich sinflarda tabiiy fanlarni 4K modeli asosida tashkil etish metodikasi va baholash mexanizmlari.....176

G.Z.ERMATOVA, G.E.TURAYEVA

Elektron resurslar asosida ona tili va o'qish savodxonligi fanlarini o'qitish samaradorligini oshirish usullari.....180

D.D.NORQUVATOVA, N.M.SALOXITDINOVA

STEAM yondashuvining boshlang'ich matematika ta'limidagi ahamiyati.....187

M.O.ZARIPOVA, N.M.SALOXITDINOVA

Zamonaviy ta'limda baholash tizimlarining transformatsiyasi va uning ta'lim sifatiga ta'siri.....190

M.A.NORBOSHEVA, N.ABDIYEVA

Giperaktiv bolalar bilan olib boriladigan psixologik-pedagogik ishlar.....194

G'A.MAMARAJABOV

Mustaqillik yillarida O'zbekistonda hunarmandchilikni rivojlantirishning huquqiy asoslari va amaliy tajriba.....198

T.J.YARMATOV, F.J. YARMATOV

Mahmud Qoshg'ariyning "Devonu Lug'atit Turk" asari etnofolklor manba.....202

SH.T.YAKUBOVA

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida ekologik madaniyat shakllantirishning ilmiy-nazariy asoslari.....205

N.B.RAUPOVA

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining milliy qadriyatlarga bo'lgan munosabatini shakllantirish metodikasi ("Qutadg'u bilig" va "Hibat ul-haqoyiq" dostonlari namunalari misolida).....208

M.SH.BURIYEVA

The role of code-switching in Uzbekistan's diverse society: identity and cultural exchange.....213

Z.M.ALLAYEV

Traditions of dream interpretations in linguoculturology.....218

Z.F.ERGASHEVA, G'Y.SALOMOV

Ona-tili va o'qish savodxonligi darslarida o'quvchilarning axborot bilan ishlash kompetensiyasini rivojlantirish metodikasi.....221

L.A.RAIMOV

A comparative analysis of ai and human translation in advertising texts.....225

A.A.QARAQULOV

Mengziyo Safarov qissalarida ona-tabiatning poetik manzarasi.....229

N.A.UMAROVA

Boshlang'ich sinflarda tabiiy fanlar darslarida loyiha faoliyatini tashkil etish nazariyasi va metodikasi.....234

M.T.MENGNAROVA

Ingliz va O'zbek tillaridagi rang komponentli maqollarda madaniy birliklarning ahamiyati.....238

I.B.JURAEV

The effect of authentic materials on vocabulary acquisition in english classes.....242

D.A.BADALOV

Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi talabalarining kasbiy kompetentligini rivojlantirishda, klaster metodida yondashish.....248

F.J. YARMATOV, T.J. YARMATOV

Dostonchilik an'analari shakllanishining tarixiy asoslari.....252

M.O.BEGALIYEVA

Pattakesar.....257

Termiz iqtisodiyot va servis universiteti o'qituvchisi
Xurramov Ramazon Allayor o'g'li
E-mail: ramazon_xurramov@tues.uz

HUDUDLAR KESIMIDA EKSPORT MAHSULOTLARINING DAROMADLILIK DARAJASINI PRODY INDEKSI ASOSIDA STATISTIK TAHLIL QILISH

ANNOTATSIYA

Maqolada hududlar kesimida eksport mahsulotlarining daromadlilik darajasi PRODY indeksi asosida statistik tahlil qilinadi. Tadqiqotda PRODY indeksi mahsulotning daromadlilik darajasini ifodalovchi ko'rsatkich sifatida qo'llanilib, u eksport qiluvchi hududlarning aholi jon boshiga yalpi hududiy mahsuloti va eksport tarkibidagi ulushlari asosida aniqlanadi. Hisob-kitoblar O'zbekistonning ma'muriy-hududiy birliklari kesimida amalga oshirilib, xizmatlar hamda asosiy eksport tovarlari bo'yicha PRODY qiymatlari aniqlangan. Natijalar yuqori, o'rtacha va past daromadli eksport mahsulotlarini ajratish hamda eksport tarkibining daromadlilik darajasini baholash imkonini beradi. Shuningdek, eksport tarkibini diversifikatsiya qilish va yuqori daromadli mahsulotlar ulushini oshirish zarurligi asoslab berilgan.

Kalit so'zlar. PRODY indeksi, eksport mahsulotlari, daromadlilik darajasi, hududlar kesimi, eksport tarkibi, statistik tahlil, aholi jon boshiga YaHM, eksport hajmi, vazn koeffitsiyenti, diversifikatsiya, yuqori daromadli mahsulotlar.

СТАТИСТИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ УРОВНЯ ДОХОДНОСТИ ЭКСПОРТНОЙ ПРОДУКЦИИ НА ОСНОВЕ ИНДЕКСА PRODY В РЕГИОНАЛЬНОМ АСПЕКТЕ

АННОТАЦИЯ

В статье представлен статистический анализ уровня доходности экспортной продукции в региональном аспекте на основе индекса PRODY. В исследовании индекс PRODY применяется как показатель, отражающий уровень доходности продукции, и рассчитывается на основе валового регионального продукта на душу населения экспортирующих регионов и их долей в структуре экспорта. Расчёты проведены по административно-территориальным единицам Узбекистана, определены значения PRODY для услуг и основных товарных групп экспорта. Полученные результаты позволяют классифицировать экспортную продукцию на группы с высоким, средним и низким уровнем доходности, а также оценить уровень доходности структуры экспорта. Кроме того, обоснована необходимость диверсификации структуры экспорта и увеличения доли высокодоходной продукции.

Ключевые слова. Индекс PRODY, экспортная продукция, уровень доходности, региональный аспект, структура экспорта, статистический анализ, валовой региональный продукт на душу населения, объём экспорта, весовой коэффициент, диверсификация, высокодоходная продукция.

STATISTICAL ANALYSIS OF THE PROFITABILITY LEVEL OF EXPORT PRODUCTS BASED ON THE PRODY INDEX IN A REGIONAL CONTEXT

ABSTRACT

This article provides a statistical analysis of the profitability level of export products in a regional context based on the PRODY index. In this study, the PRODY index is employed as an indicator reflecting the income level of a product and is calculated using the gross regional product per capita of exporting regions and their shares in the export structure. The calculations are conducted across the administrative-territorial units of Uzbekistan, and PRODY values are estimated for services and major export commodity groups. The results make it possible to classify export products into high-, medium-, and low-income categories and to assess the profitability level of the export structure. In addition, the necessity of diversifying the export structure and increasing the share of high-income products is substantiated.

Keywords. PRODY index, export products, profitability level, regional context, export structure, statistical analysis, gross regional product per capita, export volume, weight coefficient, diversification.

KIRISH

Jahon iqtisodiyotida eksport tarkibining sifati va daromadlilik darajasini baholash masalasi barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlashning muhim omillaridan biri hisoblanadi. So'nggi yillarda xalqaro savdo tizimida nafaqat eksport hajmi, balki uning tarkibiy tuzilmasi va iqtisodiy murakkabligi asosiy mezon sifatida qaralmoqda. Shu nuqtai nazardan, eksport qilinayotgan mahsulotlarning daromadlilik darajasini aniqlash va tahlil qilish global miqyosda dolzarb ilmiy yo'nalishlardan biri bo'lib, bu borada PRODY indeksi keng qo'llanilmoqda. Mazkur indeks mahsulotning daromadlilik darajasini uni eksport qilayotgan mamlakatlarning aholi jon boshiga yalpi ichki mahsuloti asosida baholash imkonini berib, eksport tarkibining sifat jihatini aniqlashda muhim analitik vosita sifatida xizmat qiladi.

Osiyo mintaqasida eksportni diversifikatsiya qilish, yuqori qo'shimcha qiymatga ega mahsulotlar ulushini oshirish va global qiymat zanjirlarida faol ishtirok etish masalalari ustuvor yo'nalishlardan biri hisoblanadi. Xususan, Janubiy Koreya, Xitoy, Malayziya kabi davlatlar tajribasi shuni ko'rsatadiki, eksport tarkibining daromadlilik darajasini oshirish iqtisodiy rivojlanishning muhim drayveri hisoblanadi. Ushbu jarayonda eksport mahsulotlarining sifatini baholashda PRODY indeksi kabi zamonaviy statistik yondashuvlardan foydalanish ilmiy va amaliy jihatdan muhim ahamiyat kasb etadi. Bu esa hududlar kesimida eksport tarkibini chuqur tahlil qilish va yuqori daromadli mahsulotlar ulushini kengaytirishga qaratilgan strategiyalarni ishlab chiqishni talab etadi.

O'zbekiston Respublikasining "Eksport nazorati to'g'risida"gi Qonunida eksport nazorati sohasidagi munosabatlarni tartibga solish asosiy maqsad qilib olingan bo'lib, vazifalari etib eksport nazoratini amalga oshirish orqali O'zbekiston Respublikasi xavfsizligini hamda O'zbekiston Respublikasining yalpi qirg'in quroli va boshqa turdagi qurol-yarog'larni tarqatmaslik sohasidagi xalqaro majburiyatlari bajarilishini ta'minlash olingan [1].

Shu nuqtayi nazardan, hududlar kesimida eksport mahsulotlarining daromadlilik darajasini tahlil qilish dolzarb hisoblanadi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Hausmann, Hwang va Rodrik (2006) tadqiqotida eksport tarkibining iqtisodiy mazmunini baholash

maqsadida PRODY indeksi ishlab chiqilgan bo'lib, u mahsulotni eksport qiluvchi mamlakatlarning jon boshiga YaIM ko'rsatkichlarining vaznlangan o'rtachasi sifatida aniqlanadi va mahsulotning daromadlilik darajasini ifodalaydi. Indeks 1999–2001-yillarda savdo ma'lumotlarini izchil taqdim etgan mamlakatlar asosida hisoblanib, og'ishlarning oldini olish ta'minlangan; bunda Commodity Trade Statistics Database (COMTRADE) va World Development Indicators (WDI) ma'lumotlaridan foydalanilib, 113 ta mamlakat qamrab olingan. Hisoblashda jon boshiga YaIMning PPP va bozor kurslari asosidagi qiymatlari qo'llanib, ular o'rtasida sezilarli farq aniqlanmagan. Empirik natijalar mahsulotlar kesimida daromadlilik darajasi keskin farqlanishini ko'rsatib, past PRODY qiymatlari asosan xomashyo tovarlarga, yuqori qiymatlar esa yuqori daromadli mamlakatlar eksportiga xos mahsulotlarga tegishli ekanligini hamda ixtisoslashuv darajasi mamlakat daromadi bilan chambarchas bog'liqligini asoslab beradi [3].

Hidalgo va Hausmann [5] iqtisodiy rivojlanishni mamlakat iqtisodiyotining murakkabligi orqali izohlaydi. Mualliflar savdo ma'lumotlarini mamlakatlar va ular eksport qiladigan mahsulotlar o'rtasidagi bipartit tarmoq sifatida talqin qilib, ushbu tarmoq tuzilmasi asosida iqtisodiy murakkablikni miqdoriy baholash mumkinligini ko'rsatadilar. Tadqiqotda aniqlanishicha, iqtisodiy murakkablik ko'rsatkichlari mamlakat daromad darajasi bilan ijobiy bog'liq bo'lib, ushbu bog'liqlikdan og'ishlar kelajakdagi iqtisodiy o'sishni bashorat qilish imkonini beradi. Shuningdek, mamlakatlar odatda o'z ishlab chiqarish tuzilmasi murakkabligi bilan belgilanadigan daromad darajasiga yaqinlashadi. Shu asosda mualliflar barqaror iqtisodiy o'sish va rivojlanish uchun ishlab chiqarish tizimida murakkablikni shakllantirish muhimligini ta'kidlaydilar [5].

Grinberg R. S. tomonidan yozilgan maqolada bozor islohotlarining yuqori ijtimoiy narxi tabiati hamda mahalliy iqtisodiyotning davriy ravishda iqtisodiy inqirozlarga tushib qolish sabablari tahlil qilinadi. Rossiya Federatsiyasida islohotlar amalga oshirilgan qariyb chorak asr mobaynidagi asosiy iqtisodiy rivojlanish ko'rsatkichlari o'rganilgan. Muallif tomonidan o'ng-liberal radikal transformatsiya modeli samarali emasligi to'g'risida xulosa qilingan. Shu bilan birga, mavjud iqtisodiy real holatlarni qayta

anglash va amaldagi iqtisodiy siyosat modelini qayta ko'rib chiqish zarurligi ta'kidlangan. Bozor fundamentalizmi g'oyalari muqobil sifatida iqtisodiy sotsiodinamika konsepsiyasining dolzarbligi asoslab berilgan [2].

Jo'rabayeva Sh.K. maqolasida eksportni diversifikatsiyalash bo'yicha turli yondashuvlar tahlil qilinib, O'zbekiston Respublikasi eksportining hozirgi holati, xususan to'qimachilik mahsulotlarining eksportdagi o'rni aniq ko'rsatib berilgan. Muallif eksport salohiyatini baholashda diversifikatsiya indeksidan foydalangan holda 2010–2023-yillar davrida sanoat eksportining strukturaviy o'zgarishlari tahlil qilingan, shuningdek eksport diversifikatsiyasini oshirish yo'nalishlari bo'yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan. Ushbu yondashuvlar O'zbekiston eksport salohiyatini murakkab indekslar orqali baholashga qaratilgan bo'lib, ularning natijalari eksport strukturasi chuqurroq anglash va strategik rejalashtirish uchun muhim ilmiy asos bo'lib xizmat qiladi [6].

Ammo yuqorida keltirilgan tadqiqotchilarning ilmiy ishlarida O'zbekistonning ma'muriy-hududiy birliklari kesimida eksport mahsulotlarining daromadlilik darajasini statistik tahlil qilishda PRODY indeksidan foydalanish masalasi yetarli darajada chuqur yoritilmagan.

Tadqiqot metodologiyasi. Ushbu tadqiqotda hududlar kesimida eksport mahsulotlarining daromadlilik darajasini baholashda empirik va statistik tahlil usullaridan foydalanildi. Ilmiy yondashuv sifatida kompozit indekslar tahlili, me'yorlashtirish, vaznlashtirilgan o'rtacha qiymatlarni hisoblash hamda qiyosiy statistik tahlil metodlari qo'llanildi.

Tadqiqotning asosiy metodologik asosi sifatida Hausmann, Hwang va Rodrik (2006) tomonidan ishlab chiqilgan PRODY indeksi qo'llanildi. Ushbu indeks mahsulotning daromadlilik darajasini eksport qiluvchi hududlarning aholi jon boshiga yalpi hududiy mahsuloti (YaHM) va eksport tarkibidagi ulushlari asosida vaznlashtirilgan o'rtacha ko'rsatkich sifatida aniqlaydi.

Empirik tahlil 2024-yil uchun O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlari asosida amalga oshirildi. Eksport ma'lumotlari XSST tasnifi bo'yicha guruhlanib, mahsulotlar va xizmatlar kesimida qayta ishlangan. Har bir hudud bo'yicha eksport ulushlari asosida vazn koeffitsiyentlari

shakllantirildi va PRODY indeksi har bir mahsulot guruhi uchun alohida hisoblandi.

Hisob-kitob jarayonida quyidagi bosqichlar amalga oshirildi: (i) hududlar kesimida eksport ulushlarini aniqlash; (ii) aholi jon boshiga YaHM ko'rsatkichlarini bazaviy indikator sifatida olish; (iii) eksport ulushlari asosida vaznlashtirilgan o'rtacha qiymatlarni hisoblash; (iv) PRODY indeksini standartlashtirish va normallashtirish; (v) mahsulotlarni daromadlilik darajasi bo'yicha guruhlash.

Olingan natijalar asosida eksport mahsulotlari yuqori, o'rta va past daromadlilik toifalariga ajratildi hamda hududlar eksport tarkibining iqtisodiy sifati qiyosiy-statistik usulda tahlil qilindi.

Tahlil va natijalar. Hududlarning eksport salohiyatini kompleks baholash zamonaviy iqtisodiy rivojlanish strategiyasining muhim yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Jahon amaliyotida eksport raqobatbardoshligini aniqlashda turli indeks yondashuvlari (RCA, ECI, Trade Competitiveness Index va boshqalar) qo'llaniladi. Biroq mazkur indekslarning aksariyati eksport hajmi yoki ixtisoslashuv darajasiga asoslanib, hududiy eksportning strategik va institutsional omillarini to'liq qamrab olmaydi.

Shu nuqtai nazardan, Surxondaryo viloyati eksport salohiyatini baholash uchun Surxondaryo Eksport Salohiyatining Strategik Kompleks Indeksi (SESSI) ishlab chiqildi. Mazkur indeks eksportni faqat natijaviy ko'rsatkich sifatida emas, balki resurs, diversifikatsiya, innovatsiya, infratuzilma, institutsional va raqamli transformatsiya omillari uyg'unligida baholash imkonini beradi.

Surxondaryo viloyati eksport salohiyatining strategik kompleks indeksi quyidagi formula asosida aniqlanadi:

$$SESSI = A_f \cdot \sum_{i=1}^n (C_i \cdot \omega_i \cdot a_i) \quad (1)$$

Bu yerda,

C_i - Surxondaryo viloyati eksport salohiyatini shakllantiruvchi i -komponentaning me'yorlashtirilgan qiymati. U o dan 1 gacha intervalda baholanib, har bir omilning hudud eksportiga ta'sir darajasini ifodalaydi.

ω_i - vazn koeffitsiyenti bo'lib, komponentaning eksport salohiyatidagi nisbiy ahamiyatini ko'rsatadi. Vaznlar ekspert baholash yoki statistik usullar asosida aniqlanadi.

a_i - strategik ahamiyat koeffitsiyenti

bo'lib, har bir indikatorning eksportdagi transformatsion rolini ifodalaydi.

A_f - tashqi adaptatsion omil bo'lib, geosiyosiy risklar, global narxlar dinamikasi, transport xarajatlari hamda iqlim omillarining eksport muhitiga ta'sirini hisobga oladi. Ushbu koeffitsiyent yiliga bir marta yangilanib boradi va indeksning moslashuvchanligini ta'minlaydi.

n - indeks tarkibiga kiritilgan komponentlar soni bo'lib, ushbu tadqiqotda $n=12$ ga teng.

SESSI indeksining ilmiy va amaliy ahamiyati eksport salohiyatini baholashda kompleks, strategik va moslashuvchan yondashuvni birlashtirishi bilan izohlanadi. Birinchidan, indeks tarkibidagi har bir ko'rsatkich nafaqat vazn koeffitsiyenti (ω_i), balki strategik ahamiyat koeffitsiyenti (a_i) orqali ham baholanadi. Bu esa har bir omilning hudud eksportini rivojlantirishdagi o'zgartiruvchi va kuchaytiruvchi ta'sirini hisobga olish imkonini beradi. Ikkinchidan, tashqi muhitga moslashtiruvchi omil (A_f) indeks natijalarini jahon xo'jaligidagi o'zgarishlar, xalqaro beqarorlik omillari hamda tashqi savdo sharoitining dinamikasiga moslashtiradi, bu esa kompozit indekslar amaliyotida nisbatan kam uchraydigan metodologik yondashuv hisoblanadi. Uchinchidan, indeks resurs bazasi, diversifikatsiya, innovatsion salohiyat, boshqaruv muhiti, logistika imkoniyatlari va raqamli rivojlanish omillarini o'zaro uyg'un holda birlashtirib, eksport salohiyatini har tomonlama baholash imkonini beradi. Mazkur indeksni hisoblashda Surxondaryo viloyatining rasmiy statistik ma'lumotlari hamda xalqaro va milliy ochiq axborot manbalaridan foydalanish orqali amaliy natijalarga erishish mumkin.

SESSI indeksi eksport salohiyatini quyidagi 12 ta strategik komponent asosida baholaydi: C_{1-} Eksport hajmi va o'sish sur'ati (5 yillik), C_{2-} Bozor diversifikatsiyasi (HHI, geografik tahlil), C_{3-} Mahsulot diversifikatsiyasi (HS-kodlar asosida), C_{4-} Mahsulot sifati va texnologik murakkablik (RCA, PRODY), C_{5-} Innovatsion salohiyat (R&D, patent, texnologiya qabul qilish), C_{6-} Infratuzilma: transport, logistika, energetika, C_{7-} Mehnat kuchining malakasi va bandlik, C_{8-} Siyosiy barqarorlik va boshqaruv sifati, C_{9-} Tashqi savdo siyosati: bitimlar, preferensiyalar, C_{10-} Ekologik barqarorlik va tabiiy resurslar, C_{11-} Logistika samaradorligi va bojxona sifati, C_{12-} Raqamli savdo imkoniyatlari

va IT infratuzilma.

Ushbu tadqiqot ishimizda PRODY indeksini O'zbekistonning 14 ta ma'muriy-hududiy birliklari kesimida aniqlaymiz va xulosalar ishlab chiqamiz. Dastlab PRODY so'zining ma'nosini yaxshilab bilib olishimiz lozim.

PRODY so'zi "Productivity level of a product" ya'ni o'zbek tilida "Mahsulotning daromadlilik darajasi"ning qisqartmasi bo'lib, bu tushuncha Hausmann, Hwang va Rodrik (2006, 2007) tomonidan kiritilgan va ushbu mualliflarning 2007-yildagi "What You Export Matters" nomli maqolasida quyidagicha ta'rif berilgan: "Ushbu indeks muayyan mahsulotni eksport qilayotgan mamlakatlarning aholi jon boshiga yalpi ichki mahsulotlarining og'irlangan o'rtachasi bo'lib, shu mahsulot bilan bog'liq bo'lgan daromad darajasini ifodalaydi [4, P. 10]". Demak, PRODY – bu ma'lum bir mahsulotning "daromadlilik darajasi", u ushbu mahsulotni eksport qilayotgan mamlakatlarning aholi jon boshiga YAIMlari bo'yicha, ushbu mahsulotdagi ularning RCA (nisbiy ustunlik) ulushlari asosida vaznlashgan o'rtachasi sifatida aniqlanuvchi "mahsulotning daromadlilik darajasi indeksi"dir.

Mamlakatlar j bilan indekslan sin va tovarlar l bilan indekslan sin. Har qanday yil uchun j mamlakatning umumiy eksport qiymati quyidagiga teng:

$$X_j = \sum_l x_{jl}$$

j mamlakatning jon boshiga to'g'ri keladigan YaIM hajmi Y_j bilan belgilansin. U holda k tovar uchun PRODY indeksi:

$$PRODY_k = \sum_j \left(\frac{x_{jk}/X_j}{\sum_j (x_{jk}/X_j)} \cdot Y_j \right) \quad (2)$$

x_{jk}/X_j vaznining surat qismi tovarning mamlakat umumiy eksport savatidagi qiymat ulushidir. Vaznning maxraji $\sum_j (x_{jk}/X_j)$ tovarni eksport qiluvchi barcha mamlakatlar bo'yicha qiymat ulushlarini jamlaydi. Shunday qilib, ushbu indeks aholi jon boshiga YAIMning vaznli o'rtacha qiymatini ifodalaydi, bunda vaznlar har bir mamlakatning k mahsulotidagi aniqlangan taqqoslama ustunligiga (RCA) mos keladi. [4, P. 10]

Yuqoridagi formulada qaysi yilni olish ixtiyoriy. Biz tadqiqot ishimizda yuqoridagi ishlardagidek 2024-yildagi ma'lumotlar bilan ishlaymiz. Oxirgi formulani k – eksport qilingan tovar, j -viloyat, Y_j – viloyatdagi aholi jon boshiga yalpi hududiy mahsulot hajmi (ming so'm), x_{jk} – j viloyatdagi k tovarning eksport hajmi, X_j – j viloyatdagi

umumiy eksport hajmiga nisbatlari yig'indisi deb modifikatsiya qilib olamiz va "xizmatlar" eksporti misolida hisob-kitobni qilamiz (1-jadval).

O'zbekistonda 2024-yildagi "xizmatlar" eksporti bo'yicha PRODYni hisoblash natijalari¹

T/r	Ma'muriy-hududiy birliklar	Xizmatlar eksporti (x_{jk})	Viloyatdagi umumiy eksport hajmi (X_j)	$\frac{x_{jk}}{X_j}$	Vaznlar (ω_{jk})	Aholi jon boshiga YaHM hajmi, ming so'm (Y_j)	$\omega_{jk} \cdot Y_j$
1	Surxondaryo viloyati	6057,5	269473,7	0,0225	0,0252	18670	471,1572
2	Andijon viloyati	19300	1191100,2	0,0162	0,0182	26409	480,4027
3	Buxoro viloyati	27871	296500	0,094	0,1055	34729,6	3664,9844
4	Jizzax viloyati	1854,1	208077,5	0,0089	0,01	28281	282,9093
5	Farg'ona viloyati	12600	826200	0,0153	0,0171	22259,5	381,1055
6	Namangan viloyati	5000	596478,95	0,0084	0,0094	22238,7	209,2805
7	Navoiy viloyati	2266,8	1109469,7	0,002	0,0023	108108,6	247,9719
8	Qashqadaryo viloyati	6500	514103,7	0,0126	0,0142	22405,1	318,0197
9	Qoraqalpog'iston Respublikasi	1992,5	420103,5	0,0047	0,0053	22645,8	120,5797
10	Samarqand viloyati	72700	872600	0,0833	0,0935	23481,3	2196,2706
11	Sirdaryo viloyati	5100,0	283876,5	0,018	0,0202	30359,2	612,3159
12	Xorazm viloyati	26090,2	386261,5	0,0675	0,0758	25452,4	1930,053
13	Toshkent viloyati	11500	1923600	0,006	0,0067	47526,1	318,9773
14	Toshkent shahri	2936600	5527300	0,5313	0,5965	91376,6	54501,8509
	Jami:	–	–	0,8907	–	–	65735,879

Ushbu jadvalga vazn ustunini kiritdik va " ω_{jk} – eksport qilingan k tovarning j viloyatdagi vazni" deb belgilab olib, $\omega_{jk} = \frac{x_{jk}/X_j}{\sum_j (x_{jk}/X_j)}$ formula va $\sum_j (x_{jk}/X_j) = 0,8907$ orqali har bir viloyat uchun uning qiymatlarini 5-ustundagi sonlarni 0,8907 ga bo'lish bilan aniqlab chiqdik. Ketma-ket hisob-kitoblarni amalga oshirib, $PRODY_{xizmatlar} = 65735,879$ ming so'm ekanligini aniqladik.

Huddi shunday ketma-ketlikda amallarni bajarib ishimizdagi barcha eksport tovarlarining daromadlilik darajasi indeksi ($PRODY_k$)ni va keyingi bosqichda har bir j mahsulotning $[0; 1]$ oralig'ida me'yorlashtirilgan qiymatlarini quyidagi formula orqali aniqladik (2-jadval):

$$PRODY_j^{norm} = \frac{PRODY_j - \min(PRODY)}{\max(PRODY) - \min(PRODY)} \quad (3)$$

2-jadval

O'zbekistonning 2024-yildagi XSST bo'yicha eksporti tarkibi uchun PRODYlarni hisoblash natijalari (ming so'mda)²

T/r	XSST bo'yicha eksporti tarkibi	$PRODY_k$	$PRODY_j^{norm}$
1	Xizmatlar	65735,879	0,9926
2	Turli xil tayyor buyumlar	31869,231	0,1294
3	Sanoat tovarlari	33283,721	0,1655
4	Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	26791,525	0,0000
5	Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari	31228,29	0,1131

6	Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar	34546,239	0,1976
7	Mashinalar va transport asbob-uskunolari	32775,3	0,1525
8	Kimyoviy vositalar va shunga o'xshash mahsulotlar	66027,369	1,0000
9	Ichimliklar va tamaki	55542,511	0,7328
10	Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar	32061,151	0,1343
11	Boshqa tovarlar	32234,216	0,1387

Yuqoridagi jadvaldan "Kimyoviy vositalar va shunga o'xshash mahsulotlar" (66027,369 ming so'm), "Xizmatlar" (65735,879 ming so'm), "Ichimliklar va tamaki" (55542,511 ming so'm) nomli eksport tovarlari eng yuqori PRODY qiymatlariga egaligi bu mahsulotlarning yuqori daromadli viloyatlar tomonidan eksport qilinayotganligini hamda ular eksportini qo'shimcha rivojlantirish O'zbekiston eksportining "daromad sifati"ni yanada oshirishini anglatadi.

O'rtacha PRODY qiymatlariga "Sanoat tovarlari" (33283,721 ming so'm), "Mashinalar va transport asbob-uskunolari" (32775,3 ming so'm), "Boshqa tovarlar" (32234,216 ming so'm) nomli eksport tovarlari ega bo'ldi. Bu esa ularning o'rtacha daromadli viloyatlarga xosligini va eksportni

diversifikatsiyalashda muhimligini bildiradi. O'rtacha PRODY mahsulotlari past darajadagi mahsulotlardan yuqori daromadli mahsulotlarga o'tishda o'ziga xos 'ko'prik' vazifasini bajaradi.

Eng past PRODY qiymatlariga esa "Turli xil tayyor buyumlar" (31869,231 ming so'm), "Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari" (31228,29 ming so'm), "Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar" (26791,525 ming so'm) nomli eksport tovarlari to'g'ri keldi. Bu tovarlar asosan past yoki o'rta daromadli viloyatlar tomonidan eksport qilinadi. Shu sababli, ularning eksportdagi ulushi yuqori bo'lsa, O'zbekiston iqtisodiyotining umumiy murakkabligi pasayib qoladi.

Xulosa. Ushbu tadqiqotda O'zbekiston Respublikasining ma'muriy-hududiy birliklari kesimida eksport mahsulotlarining daromadlilik darajasi PRODY indeksi asosida statistik tahlil qilindi. Tadqiqot natijalari eksport tarkibining iqtisodiy sifati hududlar o'rtasida sezilarli farqlanishini ko'rsatdi. Xususan, ayrim hududlarda yuqori daromadli mahsulotlar ulushi nisbatan yuqori bo'lsa, boshqa hududlarda past daromadli mahsulotlar eksporti ustunlik qilishi kuzatildi.

Hisob-kitoblar natijasiga ko'ra, "Kimyoviy vositalar va shunga o'xshash mahsulotlar", "Xizmatlar" hamda "Ichimliklar va tamaki" kabi tovar guruhlari yuqori PRODY qiymatlariga ega bo'lib, ular asosan yuqori daromadli hududlar eksporti bilan bog'liq ekanini aniqlandi. O'rta darajadagi PRODY ko'rsatkichlari "Sanoat tovarlari", "Mashinalar va transport asbob-uskunalar" va "Boshqa tovarlar" guruhlarida kuzatildi. Eng past PRODY qiymatlari esa "Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar", "Nooziq-ovqat xomashyo" hamda "Turli xil tayyor buyumlar" guruhlariga to'g'ri kelib, ushbu mahsulotlar nisbatan past daromadli iqtisodiy tuzilma bilan bog'liqligini ko'rsatdi.

Umuman olganda, tadqiqot natijalari O'zbekiston eksportining tarkibiy jihatdan to'liq diversifikatsiyalanmaganini, yuqori qo'shimcha qiymatga ega mahsulotlar ulushini oshirish zarurligini va hududlar kesimida eksport salohiyatida nomutanosibliklar mavjudligini tasdiqladi. Shuningdek, PRODY indeksi eksport mahsulotlarining "daromadlilik sifati"ni baholashda samarali analitik vosita ekanligi amaliy jihatdan asoslab berildi.

Tadqiqot natijalariga asoslanib quyidagi takliflar ishlab chiqildi:

- Hududlar eksport tarkibida yuqori PRODY qiymatiga ega mahsulotlar ulushini oshirishga qaratilgan sanoat siyosatini kuchaytirish lozim.
- Past daromadli eksport mahsulotlaridan bosqichma-bosqich yuqori qo'shimcha qiymatli mahsulotlarga o'tish strategiyasini ishlab chiqish zarur.
- Eksportni diversifikatsiya qilishni chuqurlashtirish, ayniqsa xomashyoga yo'naltirilgan mahsulotlar ulushini kamaytirish tavsiya etiladi.
- Hududlarda qayta ishlash sanoatini rivojlantirish orqali eksport mahsulotlarining texnologik murakkabligini oshirish kerak.
- PRODY va unga o'xshash indekslar asosida muntazam monitoring tizimini joriy etish maqsadga muvofiq.
- Eksport salohiyati past bo'lgan hududlarda investitsion muhitni yaxshilash va infratuzilmani rivojlantirish orqali eksport imkoniyatlarini kengaytirish lozim.
- Ilmiy-innovatsion faoliyatni qo'llab-quvvatlash orqali yuqori texnologiyali mahsulotlar eksportini rag'batlantirish zarur.
- Eksport siyosatini ishlab chiqishda hududiy xususiyatlarni inobatga olgan differensial yondashuvni joriy etish tavsiya etiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. O'zbekiston Respublikasining 26.08.2004 yildagi 658-II-son "Eksport nazorati to'g'risida"gi qonuni.
2. Grinberg R. S. Экономика современной России: состояние, проблемы, перспективы // Вестник Института экономики Российской академии наук. - 2015. - № 1. - 20 с.
3. Hausmann R., Hwang J., Rodrik D. What You Export Matters. — Cambridge, MA: National Bureau of Economic Research, 2006. — (NBER Working Paper No. 11905).
4. Hausmann R., Hwang J., Rodrik D. What You Export Matters // Journal of Economic Growth. — 2007. — Vol. 12, No. 1. — P. 1–25.
5. Hidalgo C. A., Hausmann R. The Building Blocks of Economic Complexity // Proceedings of the National Academy of Sciences of the United States of America. — 2009. — 106(26). — P. 10570–10575. — DOI: 10.1073/pnas.0900943106.
6. Jo'rabayeva Sh. K. Mahsulot diversifikatsiyasi asosida eksport potensialini oshirish yo'llari // Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot. — 2024. — № 7-maxsus son. — B. 67–69.